

Poytaxtimiz "Azot Sintezgaz.O'zbekiston va MDH" 3-xalqaro kongressi va ko'rgazmasiga mezbonlik qildi.

// 22 November 2024 yil

<https://pda.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/poytaxtimiz-azot-sintezgaz-o-zbekiston-va-mdh-3-xalqaro-kongressi>



"O'zkimyosanoat" AJ hamda MDH mamlakatlari, shuningdek, boshqa qator davlatlarning kimyo sanoati sohasida faoliyat yurituvchi kompaniyalari vakillari ishtirok etgan tadbirning ikkinchi kunida qator mavzularda muhokamarlar tashkil etildi.

Jumladan, "O'zkimyosanoatloyiha" Aksiyadorlik jamiyati muhandisi Alim Sharipov tarmoq korxonalarida modernizatsiya dasturlarining ahamiyati, bu borada ammiak, mineral o'g'itlar va metanol ishlab chiqaruvchi korxonalar tajribasini tahlil qildi. Shu bilan birga, ishlab chiqarish va loyihalashtirish jarayonlarida raqamlashtirishning o'rni haqida batafsil to'xtaldi.



“Maxam – Chirchiq” AJning Innovatsiyalar, mahalliyashtirish va sanoat kooperatsiyalari bo‘limi boshlig‘i Ruslan Abdurashitov ammiak texnologik jarayonlari uchun sanoat katalizatorlarini ishlab chiqarish mavzusida so‘z yuritdi.



Korxonalarining ichki infratuzilmasi bo'yicha o'tkazilgan munozarada jarayonlar samaradorligi, ta'minot zanjirlarini rivojlantirish, ishlab chiqarish muammolarini hal qilish, mahsulotni sotish usullari va shakllari yuzasidan fikr almashildi.

Kongress ishida shuningdek, azot va mineral o'g'itlar ishlab chiqarish yo'nalishida O'zbekiston va MDHdagi mavjud va kelajakdagi qurilish loyihalari holati ko'rib chiqildi.

Tadbir yakunida hamkorlik aloqalarini davom ettirish, har tomonlama manfaatli yo'nalishlarda o'zaro tajriba almashishni faol davom ettirishga kelishib olindi.



"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati